ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

BUGUNGI YOSHLAR HAYOTI, QIZIQISHLARI VA KAMCHILIKLARI

Ergashova Rayxon O'tkirovna
TISU filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) kafedra o'qituvchisi.
Alimqulova Umida
TISU pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
filologiya va Tillarni o'qitish (o'zbek tili) 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24221258

Annotatsiya. *Ushbu maqolani yozishdan maqsad hozirgi kundagi yoshlarning hayoti, axloqi, ota-onaga nisbatan muomalasi, qiziqishlari, kamchiliklari, vijdon, mehr-oqibat, oiladagi o'rni kabi qarashlari tahlil qilinadi. O'z fikrim orqali bugungi yoshlar hayotini qisqa va lo'nda qilib ochib bermoqchiman.*

Аннотация. *Цель написания данной статьи — проанализировать взгляды современной молодёжи на жизнь, нравственность, отношение к родителям, интересы, недостатки, совесть, милосердие и своё место в семье. Посредством собственных размышлений я хочу кратко и лаконично раскрыть сущность жизни современной молодёжи.*

Annotation. *The purpose of writing this article is to analyze modern young people's views on life, morality, their attitudes towards parents, interests, shortcomings, conscience, kindness, and their role within the family. Through my own reflections, I aim to briefly and clearly reveal the realities of today's youth.*

Kalit so'z: *Yoshlar, axloq, ota-ona, oila, qiziqishlar, mehir-oqibat, vijdon, kamchiliklar.*

Ключевые слова: *Молодёжь, нравственность, родители, семья, интересы, доброта и милосердие, совесть, недостатки.*

Keywords: *Youth, morality, parents, family, interests, kindness and compassion, conscience, shortcomings.*

Kirish: Har bir davirning o'z yoshlari bor va har bir yangi avlod o'zidan oldingisidan tubdan farq qiladi. Bugungi kun yoshlari axborot texnologiyalari virtual tarzda yo'qolgan bir davrda voyaga yetmoqda. Bu esa ularning dunyoqarashi, hayotiy prinsiplari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar hayoti va axloqini tahlil qilish, jamiyatning ertangi kunini tahlil qilish demakdir.

Asosiy qisim: Bugungi yoshlarning hayotini texnologiyalarsiz, tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ularning qiziqishlari juda rang-barang. Masalan; raqamli dunyo va bilimlar SMM, dasturlash, sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'rganish va turli xil loyihalar yaratish zamonaviy yoshlarning asosiy mashg'ulotiga aylangan. Ular mustaqillikka intilishga harakat qilishadi.

Hozirgi avlod vakillari juda erta mustaqil hayotga qadam qo'yishgan, o'z mablag'ini o'zi topishga intiladi. Ularda shaxsiy erkinlik va rivojlanish yuqori darajada.

"Hozirgi yoshlar o'zgarib ketti'' degan jumlani ko'p eshitamiz. Ammo bu o'zgarishlar salbiy ma'noda emas. Vijdoni va mas'uliyatini o'z zimmasiga olishmoqda.

Yoshlarimizda madaniyat ko’ngillilik muhtojlarga yordam berish kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali tezda birlashib, xayriya yordamlarni tashkil qila oladilar.

Oila-qadriyatlarimizning o’zagidir. Biroq, bugungi kunda, ota-onalar va farzandlar o’rtasidagi munosabatlarda yangi dunyo qarashlar ko’zga tashlanmoqda. Bunga misol qilsak, muloqot jarayonining o’zgarishi, ilgari farzandlar ota-onalar qarshisida faqat tinglovchi bo’lgan bo’lsa, bugungi yoshlar o’z fikrini erkin ifoda etishini, ularning fikri bilan ham hisoblashishlarini xohlaydi. Bu holatlar ba’zan ‘’avlodlar to’qnashuvi’’ga ham olib keladi.

Shunga qaramasdan, aksariyat yoshlar uchun oila hamon eng xavfsiz maskan va hayotdagi eng asosiy tayanch bo’lib qolmoqda. Ular ota-oansining mehnatini qadirlaydilar va kelajakda ularni moddiy hamda ma’naviy qo’llab-quvvatlashini o’z burchi deb biladi.

Shunga qaramasdan bugungi yoshlarning global muammolari va kamchiliklariga ham to’xtalib o’tish lozim: ‘’O’rgimchak to’ri’’ deb atalmish internet tarmoqlariga qaram bo’lish oqibatida muloqotingning kamayishi va vaqtning ko’p qismini ijtimoiy tarmoqda behuda sarflanishi, saboqsizlik va sabirsizlik, ya’ni tez boyib ketish, mehnat qilmay turib muvaffaqiyatga erishish istagi paydo bo’lishi, bunga ko’pincha internet tarmoqlaridagi ‘’ideal hayot’’ blogerlari sabab bo’ladi. Ruhiy zaiflik, stress va depressiya… Katta hajmdagi axborot oqimi va hayotiy raqobat tufayli yoshlar ruhiyatinng tez sinuvchilar bo’lib qolishi yetarli misol emasmi? ‘’Tanganing ikkinchi tomoni ham bor’’ deb shularni aytish kerakmasmi?

Xulosa: Bugungi yoshlar harakatchan, bilimga tashna, erkin fikirli va texnologik jihatdan juda mukammal avloddir. Ularning hayoti va axloqidagi kamchiliklarini to’g’ri yo’naltirish, ularga o’z vaqtida ishonch bildirish hamda oilada samimiy muloqot muhitini saqlab qolish bugungi kunning eng muhim vzifalaridir. Zero bugungi yoshlar ertangi kunning ijodkorlaridir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. (2021) Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent. ‘’O’zbekiston’’
2. G’oziyev. E, Ontogenez psixologiyasi.
3. Tojiyev. M, Salayeva. M, (2022) ‘’Oila pedagogikasi va yoshlar axloqi’’, Toshkent ‘’Faylasuflar jamiyati’’